E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Kitobxonlikka targ‘ib qilishning zamonaviy tahlillari va ahamiyati

Soatova Rayxona Sadriddin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo’nalishi 1-kurs talabasi
rayhonasoatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni ma’rifatli qilib tarbiyalashda kitobxonlikning ahamiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari, kitob mutolaasi insonni komillik sari yetaklashi, ma’rifatli inson jamiyat ko‘rki ekanligi haqida so‘z boradi.
Kalit so’zlar: Ma’rifat, ma’naviyat, kitobxonlik, kitob, kitob mutolaasi, komil inson.

Ma’rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayoni. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasi degan ma’noni ham bildiradi. Insonning ma’naviy qiyofasi uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos bo‘lishi uchun u yuksak axloqli, ma’rifatli, bilimli bo‘lmog‘i lozim. Ma’rifat, ziyo va komillikka erishish, avvalo, kitob mutolaasi, ilm-fan sirlarini o‘rganish jarayonida egallanadi. Fikrimizcha ham, bu borada yaqindan yordam beradigan beminnat yordamchi bu – kitob.

Kitob mutolaasi kishida chin insoniy fazilatlarni shakllantirib, uni hayotda o‘z o‘rnini topishga, jamiyatning chinakam a’zosiga aylanishida, dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zero buyuk bobokalonimiz, so‘z mulkining sultoni **Alisher Navoiy** hazratlari ta’kidlaganlaridek, kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do‘st va bebaho boylik hisoblanadi. Inson hayotida uning o‘rni muhim. Millatning ma’naviy-ruhiy dunyosini kitobxonlik darajasi, kitobga munosabatiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham, albatta, kitob mutolaasi tufaylidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar ham bejizga emas, binobarin, kelajak avlodning kamoloti ilm olish, bilimli bo‘lish bilan belgilanadi. Bu borada **“2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”** Vazirlar Mahkamasining **2020-yil 14-dekabrdagi 781-sonli qarori** qabul qilingan. Bu esa yurtimizda kitobxonlik madaniyatining oshishiga, yangidan yangi, sermazmun kitoblarning chop etilishi uchun yana bir imkoniyat kaliti bo‘ldi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori** yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablarga javob beradigan turli kitoblarni sifatli chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar ko‘zda tutilgan.

Kelajak avlodlarni barkamol qilib voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Kitob mutolaasi insonga faqatgina turli bilimlar, ma’lumotlar beribgina qolmay, uning ma’naviy olamini ham boyitadi.

“NOP World” xalqaro reyting agentligining ma’lumotlariga qaraganda, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko‘rishga sarflasa, 6,5 soatini esa mutolaa uchun sarflashadi. Tadqiqotchilar qaysi davlat aholisi haftasiga necha soat kitob o‘qishga vaqt sarflashini o‘rganib chiqishdi. Natijalarga ko‘ra, eng taraqqiy etgan emas, balki so‘ngi yillarda

tezlik bilan rivojlanayotgan davlatlar aholisi ko‘proq kitobxon bo‘lib chiqdi. Aholisi eng ko‘p kitob o‘qiydigan davlatlarning dastlabki 5 taligi quyidagicha:

1. Hindiston – haftasiga 10,7 soat.
2. Tailand – haftasiga 9,4 soat.
3. Xitoy – haftasiga 8 soat.
4. Filippin – haftasiga 7,6 soat.
5. Misr – haftasiga 7,5 soat.

Noshirlik faoliyati rivojlanib, kitob mutolaasi yanada ommalashib borayotgani muloqotning audio, video vositalari, radio, televideniye, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari hayotimizdan chuqur o‘rin egallashi bilan odamlarda kitob o‘qishga qiziqish yo‘qoladi, degan fikr xato ekanligini ko‘rsatmoqda. Shubhasiz, ommaviy axborot vositalarining yangi turlari paydo bo‘lishi natijasida kitobxonlik birmuncha pasaygan bo‘lsa-da, matbuot odamlarda kitob mutolaasiga qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda xalq ta’limi tizimida 9576 ta axborot-kutubxona muassasalari mavjud bo‘lib, shundan 12 tasi viloyat, 199 tasi tuman (shahar) va 928 tasi maktab axborot-resurs markazlari hamda 8648 tasi maktab kutubxonalari hisoblanadi. Ularga jami **4 047 738 nafar o‘quvchilar** a’zo bo‘lgan.

2017-yilning o‘rtalaridan boshlab hozirgacha dunyo bo’yicha **134 399 411 ta** kitob nashr etilgan. Bu ko‘rsatkichlar shunchaki raqam emas, biz yoshlarni har tomonlama yetuk inson bo’lib yetishishimiz uchun qilinayotgan harakatlarning natijasidir.

Bugungi kunda yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish borasida ko‘plab tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, **“Eng yaxshi kitobxon hudud”, “Eng yaxshi kitobxon mahalla”, “Eng yaxshi kitobxon ta’lim muassasasi”** reytingini joriy etish va **“Kitobxonlik haftaliklari”** doirasida turli tadbirlar o‘tkazish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kitob umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘stdir. Insonning ma’naviy kamolotini ta’minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo‘q. Shu bois azal-azaldan ma’rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilm-u odob sirlarini o‘rganishga chorlab kelishgan.

Kitob bilan oshno tutingan yoshlarning so‘zlash madaniyati, o‘zini tutishi-yu fikrlash doirasi boshqalarga qaraganda ajralib turadi. Keng dunyoqarashi, tanqidiy fikrlay olishi, ma’rifatlilik, bilimlilik darajalarining yuqorililigi bilan o‘z tengdoshlariga o‘rnak bo‘la oladi. Kitob bilan oshno bo‘lgan inson atrofga ma’rifat nurini sochib turgan porloq yulduzga o‘xshaydi. Kitob shunday bir qanotki, u orqali insonlar yuksaklarni qucha oladi.

Agar yurtimiz yoshlari ma’naviyatli, ma’rifatli bo’lsa, yurtimiz kelajagi, orzu-maqsadlari ishonchli qo‘llarda bo‘libgina qolmay, Vatanimiz bayrog‘i yuksaklarda hilpirab turishi uchun ayni bir asosga ham ega bo‘ladi. Shuni doimo unutmasligimiz kerakki: Najot faqat ilmdadir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://lex.uz/ru/docs/-5160827
2. https://lex.uz/docs/-3338600
3. M. Abdirahimova. (2021). Yoshlar o‘rtasida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol.1, Issue 4, 933-937-betlar.
4. N. Ismoilova, I. Habibjonov. (2021). Kitob va kitobxonlik – inson ma’naviyatining ko‘zgusi. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal. Issue 6, 159-165-betlar.
5. https://yuz.uz/uz/news/eng-kop-va-eng-kam-kitob-oqiladigan-davlatlarni-bilasizmi

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ma%CA%BCrifat
7. https://yuz.uz/uz/news/kitobxonlik--buyuk-kelajak-kafolati?view=yosh-stsenaristlar-jamoasi-tashkil-etiladi



WORDLY
KNOWLEDGE